



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORXONALARINING INVESTISIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH



Azizbek Xurramov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotasiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti tahlil qilinadi hamda mavjud muammolar aniqlanadi. Iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda bank-moliya tizimining o'rni, korxonalarning o'zini-o'zi moliyalashtirish imkoniyatlari, hamda xorijiy investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlari o'r ganiladi. Shuningdek, investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan ilg'or tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitiga mos tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijada, investitsiya faoliyatining institutsional va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotga investitsiyalarni, xususan, chet el investitsiyalarini kengroq jalg etish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashga muhim hissa qo'shamdi. Bu esa, milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari samaradorligini baholashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihasi, moliyalashtirish mexanizmi, korxona faoliyati, bank-moliya tizimi, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion yondashuv, kreditlash, davlat-xususiy sheriklik.

Kirish

Dunyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tajribasidan yaxshi ma'lumki, har qanday mamlakatning iqtisodiyoti uni rivojlantirishning obyektiv qonuniylatlari, mavjud iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlari, shu mamlakatda yashayotgan xalqning o'ziga xos turmush tarzi, tafakkuri, milliy qadriyat va an'analari, ma'nnaviy boyliklari to'la hisobga olingan, puxta iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqaror va mutanosib rivojiana oladi. Investitsiya sohasi - milliy iqtisodiyotning muhim sohalaridan biridir. U kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning sur'atlari va kulamiga faol ta'sir ko'rsatadi, ilmiy texnikaviy taraqqiyotni va axolining ancha qismini bandligini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar respublika ishlab chiqarish kuchlari-ning oqilona joylashtirishi va rivojlanishi ko'pchilik xollarda uning qay axvolda ekanligiga bog'liqdir.

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda bugungi kunda asosiy e'tibor iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'iga qaratilmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishni ta'minlashga investitsiyalarning hajmi va ularning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni inobatga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish, ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Buni birgina 2021 yilda kiritilgan jami investitsiyalar hajmidan ham bilib olish mumkin. Milliy iqtisodiyotga o'tgan yili kiritilgan jami investitsiyalar xajmi 2019 yilga nisbatan 25 foizga ko'paygan bo'lib, qiymati 49035,5 mlrd. so'mdan ortiqdir. Jami investitsiyalarning 42,5 foizdan ko'prog'i mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan – korxonalar va aholi a lag lari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirot etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan shakllantirilmoqda.

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investi-tsialarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo'jalik yurituvchi subyekt anglab yetganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarini kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas.

Mamlakatning ustuvor yo'naliishlarini belgilab olishda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirish, iqtisodiyotni diversi-fikatsiyalash va aholi farovonligini ta'minlashda investitsiyalarning nechog'li ahamiyat kasb etishini ta'kidlash kerak. Chunonchi, ustuvor yo'naliish sifatida chet el inves-titsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish lozimligini aytib o'tish kerak.

2021 yilning yarim yilligida o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 4,8 mlrd dollar, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy inves-titsiyalar 3,2 mlrd, davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 1,6 mlrd AQSH dolla-rini tashkil etgan.¹

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi rasmiy saytida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, asosiy kapitalga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2,6 mlrd. dollarni tashkil etib, 2019 yildagi shu ko'rsatkichga nisbatan 1,2 marotaba o'sish kuzatilgan. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiya hajmidagi ulushi 29,5 foizgacha o'sgan. Hisobot davrida 494 ta loyiha, shundan 28 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi va 466 ta hududiy ahamiyatga ega sanoat obektlari ishga tushirilgan.

Metodologiya

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalarni kiritish bo'yicha Rossiya, Xitoy, Germaniya va Turkiya davlatlari yetakchilik qilmoqda, respublikamiz iqtisodiyoti-ga

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari <https://cbu.uz/oz/>

investitsiya kiritgan mamlakatlarning umumiy soni 37 tani tashkil etmoqda. Bu davrda 2019 yilning shu davriga nisbatan o'sish elektrotexnika sanoatida - 13 barobar, qurilish materiallari ishlab chiqarishda - 3,6 barobar, AKT da - 3,5 baro-bar o'sishga erishildi va bu sohalar investorlar uchun eng jozibador bo'lmoqda. Oziq-ovqat sanoatida esa - 1,5 barobar, kimyoda - 1,3 barobar va to'qimachilik sanoatida - 1,6 barobar yaxshi o'sish dinamikasiga erishilgan. Shu bilan birga, mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilishning o'sish tendensiyasi mustahkamlandi va hisobot davrida 2 mlrd dollarni tashkil etib, 2019 yilning shu davriga nisbatan 1,05 barobarga oshgan. Umumiy summaning 1,6 mlrd dollarasi asosiy kapitalga yo'naltirilgan. Hududiy loyihalari doirasida investitsiyalarni o'zlashtirish hajmi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar umumiy hajmining 62,3 foizini tashkil etgan. Umuman olganda, yil oxiriga qadar 2 mingdan ortiq ijtimoiy, infratuzilmaviy va sanoat obektlari, shu jumladan 206 ta yangi yirik ishlab chiqarish obekti, 240 ta hududiy ahamiyatga ega ishlab chiqarish obekti hamda 1,6 mingga yaqin ijtimoiy va infratuzilmaviy obektlari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan².

Investitsiyalar, jumladan, xorijiy sarmoyalarning mamlakat iqtiso-diyotini rivojlantrish va barqarorligini ta'minlashdagi o'ziga xosligini ta'riflar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, sarmoyaga e'tibor kuchayib borayotgani mamlakati-mizda investitsiya faolligining rivojlanishiga turki bo'ldi. Investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni rivojlantrishning eng muhim omili ekanligini e'tirof etgan holda, milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borayotganini ta'kidlash joizdir (1-jadval).

1-jadval

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar³

Yillar	2005	2010	2015	2017	2018	2019	2020	2021
Qiymati, mlrd.so'm	3165,2	16463,7	44810,4	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	244962,6

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 14,9 marotabaga, 2017 yilga nisbatan 3,4 marotabaga, shuningdek 2020 yilga nisbatan 1,2 marotabaga o'sgan.

So'nggi yillarda investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayot-ganini hisobga olsak, respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoya kiritilishi munosibdir. 2010-yilda 4340,7 milliard so'm, 2015-yilda 8309,5 milliard so'm, 2017-yilda 17146,6 milliard so'm, 2021-yilda 104457,3 milliard so'm miqdorida xorijiy sarmoya o'zlashtirildi. Eng muhimi, xorijiy sarmoyalarning 70-75 foizi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalardir.

Masalan, 2017-yilda kiritilgan 17146,6 milliard so'mlik xorijiy sarmoyaning 11504,4 milliard so'mi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'ldi. 2019-yilda 320 ta loyiha bo'yicha 38154,6 milliard so'm, 2020-yilda esa 30149,2 milliard so'mlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Mamlakatimizda sarmoyaviy muhitni yaxshilash,

² O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari. <https://mift.uz/>

³ www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mulkiy munosa-batlarni yaxshilash, pirovard natijada iqtisodiyotni barqarorlashtiradi va iqtisodiy o'sishga olib keladi (1-jadval).

2-jadval

2010-2021 yillarda investitsiyalar tarkibi, mlrd so'm⁴

Ko'rsatkichlar	Jami investitsiyalar miqdori, mlrd. so'm	Xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm	Tug'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, mlrd. so'm
2010	16463,7	4340,7	1991,0
2014	37646,2	6980,1	3062,6
2015	44810,4	8309,5	2246,8
2016	51232,0	10611,4	4922,9
2017	72155,2	17146,6	11504,4
2018	124231,3	30154,8	9141,6
2019	195927,3	85437,2	38154,6
2020	210195,1	89758,8	29682,0
2021	244962,6	104457,3	30149,2

1-jadval ma'lumotlaridan jami investitsiyalar miqdori 2021 yilga kelib 2010 yilga nisbatan 228498,9 mlrd. so'mga, ya'ni 14,9 foizga, 2017 yilga nisbatan 172807,4 mlrd. so'mga, ya'ni 3,4 foizga, 2019 yilga nisbatan 49035,3 mlrd. so'mga, ya'ni 1,3 foizga hamda 2020 yilga nisbatan 34767,5 mlrd. so'mga, ya'ni 1,2 foizga oshgan bo'lib, shuningdek, tug'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 15,1 foizga, ya'ni 28158,2 mlrd. so'mga, 2017 yilga nisbatan 2,6 foizga, ya'ni 18644,8 mlrd. so'mga, 2020 yilga nisbatan esa 1,6 foizga, ya'ni 467,2 mlrd. so'mga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdag'i mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joizdir. Iqtisodiyotda investitsiya-larning so'nggi o'n yillikdagi o'sish sur'atlari turlicha bo'lib, bunda oldingi yillardagiga nisbatan o'sish va pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Adabiyotlar tahlili

Belgiyalik olim Xilbern Boysning fikriga ko'ra "Katta iqtisodiy, mineral xomashyo va inson salohiyatiga ega bo'lgan. O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni, avvalo, mamlakatdagi barqaror siyosiy vaziyat bilan o'ziga jalb etadi. Ushbu mamlakatda tatbiq

⁴ www.stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

etilayotgan barcha yangilanishlar respublikani yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va gullab-quvvatlashga kafolat bo'ladi⁵.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash bo'yicha qator yetakchi xorijiy iqtisodchi-olimlar, xususan: A.S.Nishetoy, V.V.Bocharov, V.V.Mishenko, V.V.Sheremet, D.G.Lorens, K.V.Baldina, L.V.Staxova, L.K.Egorova, L.P.Goncharenko, L.S.Valinurova, O.B.Kazakova, M.A.Nikolaev, N.L.Marenkov va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.V.Vaxabov, A.O'.O'Imasov, B.B.Samarxodjaev, D.G'.G'ozibekov, N.G'.Karimov, O.Yu.Rashidov, N.H.Haydarov, F.O'.Dodiev va boshqalar⁶ ilmiy ishlarida iqtisodiyotga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va samaradorligini baholash masalalarini yoritib berganlar.

O'zbekiston jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hukm surayotgan bir sharo-itda ham ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhidan joy olmoqda. Bunga, albatta, mamlakatimizda olib borilayotgan va uzoq strategik maqsadlarni ko'zlagan investitsiya dasturlari hamda qulay investitsiya muhiti yara-tilgani asosiy omil bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev joriy yilda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videose-lektor yig'ilishida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investi-siyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish holatini o'rGANIB, investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi hududlar va tarmoqlarning investitsiya loyihalari bo'yicha takliflarini umumlash-tirib, samaradorligini baholaydi va yagona elektron "onlayn" bazani shakllantirish, joriy yilda tijorat banklari xorijiy banklarning jami 740 million dollar to'g'ridan-to'g'ri kreditlarini jalg qilishi belgilanganligi munosabati bilan uzoq muddatli, past foizli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit resurslarini jalg qilish ishlarini kuchaytirish, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar ishtirokida ishonchli loyihalar portfelini shakllan-tirib borish tizimini yaratish, 84 ta loyiha doirasida xalqaro moliya institutlari va donorlarning 2,7 milliard dollar mablag'ini o'zlashtirishni tezlashtirish, bundan tashqari, 2 ming 800 ta ijtimoiy soha va infratuzilma obektini qurish va ta'mirlash rejalashtirish, xalqimizning hayot sifatiga daxldor bu masalaga alohida e'tibor qaratib, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, sog'liqni saqlash obektlari, yo'llar, ichimlik suvi tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha belgi-langan ishlarni jadallashtirish zarurligini ta'kidladi⁷.

Milliy iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning ahamiyati to'g'risida gapirganda, albatta "investitsiya loyihasi" degan tushunchaning mazmuni, mohiya-ti to'g'risida to'htalib o'tish lozim.

"Investitsiya loyihasi" tushunchasining tobora keng qo'llanilishi, avvalo, bu tushunchaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

"Investitsiya loyihasi" tushunchasi ikki xil ma'noda talqin etiladi:

➤ muayyan maqsadlarga erishishni (ko'zlangan natijalarini hosil qilishni)

⁵ O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. /№ 3/2011 y., 19 b

⁶ Vahobov A.V. va boshqalar. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: "Moliya", - 2010. 328 b.; O'Imasov A.O'. Iqtisodiyot asoslari. - T.: "Mehnat". 1997. - 223 b.; Самарходжаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан (международно-частно правовой аспект). - Т.: Академия, 2003. - 240 с.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: Moliya, 2003 y.-332 b.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 yanvar kuni joriy yilgi investisiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi: <https://invest.gov.uz/>


➤ ta'minlovchi qandaydir faoliyatlar yig'indisini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida tushuniladi. Bunday hollarda "xo'jalik tadbiri", "ish (ishlar yig'indisi)", "loyiha" terminlari ushbu tushunchalarga mazmunan yaqin keladi.

➤ qandaydir faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiyboshqaruv va moliyaviy-hisob hujjatlari tizimi yoki bunday faoliyatlar tizimini bayon etuvchi hujjatlar to'plami sifatida qaraladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, darslik va o'quv qo'llamalarda "investitsiya loyihasi" ikkinchi mazmundagi tushuncha sifatida qo'llaniladi. "Loyiha" tushunchasi birinchi mazmun bo'yicha tushuniladi.

"Investitsiya loyihasi" tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish, obektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonlarini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin. To'liq shakllangan, yakuniga etgan investitsiya loyihasini tuzish va amalga oshirish umumiyl holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- shartnoma hujjatlarini tayyorlash;
- loyiha (ishchi) hujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari; obektni ishga tushirish va investitsiya loyihasi monitoringini olib borish.



1-rasm. Investitsiya loyihalarning tasnifi⁸

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholash texnik, texnologik, moliyaviy, tarmoq yoki hududiylit xususiyatlariga bog'liq bo'limgan holda yagona tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Ular quyidagidan iborat:

⁸ Muallif tomonidan tayyorlandi.

➤ loyihani uning butun hayot tsikli davomida ko'rib chiqish;

➤ pul oqimlarini modellashtirish, bunda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq barcha pul tushumlari va hisobot davridagi turli valyuta-larni ishlatish ehtimolligini hisobga olgan holdagi xarajatlar kiritiladi;

➤ ishonchlilik va maksimum samara.

Investitsion loyiha investor nuqtai nazaridan samarali deb baholanishi uchun, birinchidan, uni amalga oshirish ijobiy bo'lishi, ikkinchidan, alternativ loyihalarni solishtirish chog'ida yuqoriroq samaraga ega bo'lgan loyihani ma'qul ko'rish lozim:

➤ vaqt omili hisobi;

➤ loyihani amalga oshirishdagi kutilayotgan xarajatlar va tushumlar hisobi;

➤ baholashning ko'p bosqichligi;

➤ inflyatsiya ta'siri va loyihani amalga oshirishdagi bir nechta valyutalarni qo'llash ehtimolini hisobga olish;

➤ noaniqlik va risklar ta'sirining hisobi;

➤ loyihaning turli ishtirokchilari borligini inobatga olish.

Investitsiya loyihalarini har tomonlama (xususan moliyaviy, texnologik, tashkiliy, muddati va boshqalar) xarakterlash mumkin. Bularning har biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda muhimdir, lekin ko'p hollarda investitsiya faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy mezonlar hal qiluvchi rol o'yndaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonini samarali olib borish, kelgusida yuqori daromad keltirib, iqtisodiyotdagi ishsizlik masalasini hal etishda ham muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

➤ birinchidan, investitsiya loyihalari ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

➤ ikkinchidan, import rolini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ish va buning uchun iqtisodiyotning ustuvor sohalari bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va pirovardida aholining me'ordagi turmush darajasini taminlash imkonini yaratadi;

➤ uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlanishi;

➤ to'rtinchidan, korxonalarning eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiytexnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

➤ beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi;

➤ oltinchidan, mamlakatdagi infratuzilmani rivojlantirishda katta rol o'y-naydi;

➤ ettinchidan, iqtisodiyotga xorijning ilg'or tashkilotchilik va boshqaruv tajri balarini qo'llash imkoniyati tug'iladi;

➤ sakkizinchidan, ekologiya va atrof-muhitni himoya qilishga yordam beradi va h.k.

Natijalar

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, yani neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning tarkibida 2021 yilda davlat byudjeti mablag'lari 21498,2 mlrd. so'mni, ya'ni 8,78 foizni, chet el investitsiyalari 104457,3 mlrd. so'mni, ya'ni 42,64 foizni, korxonalar va aholi mablag'lari 93486,5 mlrd. so'mni, ya'ni 38,16 foizni hamda boshqa manbalar 25520,6 mlrd. so'mni, ya'ni 10,42 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investision jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda.

Eslatib o'tish lozimki, investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O'zbekis-tonda 2020 yilda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 89758,8 milliard so'mni, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar - 29682,0 milliard so'mni tashkil etganini ma'lum qilindi.

2021 yilda jami investitsiyalarning 42,64 foizdan yoki 104457,3 milliard so'mdan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 28,86 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir", ya'ni bu ko'rsatkich 30149,2 milliard so'mdan ortiq qiymatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar-ning iqtisodiyotga jalb etilganligini bildiradi.

Investitsion jozibadorlik obekt sifatida muayyan bir miqyosda, ya'ni bironta loyiha, korxona, mintaqqa, tarmoq hamda mamlakat darajasida ko'rlishi mumkin. e'tiborli jihat shundaki, mazkur tizimda korxona asosiy tayanch nuqta hisoblanib, har bir investitsiya loyihasi muayyan bir korxona miqyosida amalga oshiriladi, ushbu korxona esa iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, muayyan tarmoqqa (sohaga) tegishli bo'ladi. Shuningdek, u ma'lum bir mintaqada joylashgani sababli mintaqaviy investitsiya jozibadorlikni aks ettirsa, barcha mintaqalar birlashtiril-ganda mazkur ko'rsatkich mamlakat darajasida aks ettiriladi.

Umuman aytganda, samarali investitsiya loyihalarini o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'gina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshiri-lishi bиргина qо'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'ga qо'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat hayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligining ko'payishiga hamda uning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Prezidentimiz "Banklar zimmasiga investitsiya faoliyatini kengaytirish vazifalari yuklanganligi sababli ularning ishini tubdan qayta tashkil etish lozim. Birinchi navbatda, bu borada investitsiya loyiha-larini ekspertizadan o'tkazish va

moliyalashtirishni tashkil etish bo'yicha tijorat banklarning maxsus xizmatlarini mustaxkamlash zarurdir”⁹.

Shuning uchun ham hozirgi kunda, investitsiya loyihalarini izchil amalga oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash va kompleks ekspertiza dolzarb hisoblanadi.

Xulosa

Investitsiya loyihalarining texnikaviy-iqtisodiy asosi sifatsiz tayyorlanishi, ularning past darajada ekspertiza qilinishi boradagi asosiy kamchiliklar investitsion loyihalarni baholash va ekspertiza qilish, ularning tanlovini to'g'ri tashkil etish ishlari g'oyat muhim masala ekanligini e'tirof etadi. Shuningdek, investitsion loyiha bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan marketing tadqiqotlari o'tkazilmasligi, loyihani tayyorlash jarayonida sherik tomonlar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilishini nazorat ostiga olmaganlari sababli xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil qilingan ko'plab korxona-lar faoliyat ko'rsatmayotganligi, loyihalarini maxsus dasturlar asosida baholash-ning xorij tajribalaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi, investitsiya loyihalarini kompleks baholashda maxsus bilim va malakaga ega bo'lgan kadrlarning yetish-masligi yoki ularni jalg qilish imkoniyatlarining etarli emasligi va boshqa ko'pgina sabablar tufayli investitsiyalash jarayonlari sust rivojlanayotganligi asosiy masala-lardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish to'g'risida"gi qarori, 2022-yil.
3. Xaydarova N.A. *Investitsiya faoliyatini boshqarish asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 240 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari. – www.invest.gov.uz
5. Umarov A.M. *Investitsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari*. // Ilmiy-amaliy jurnal "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar". – 2023. – №1. – B. 34–42.
6. Mamatqulov B.T. *Korxonalarda investitsiya loyihalarining tahlili va moliyaviy manbalarini shakllantirish*. // "TDIU Ilmiy axborotnomasi" – 2022. – №3.
7. Khudoyberganov R.A. *Tashqi va ichki investitsiyalarni jalg etish strategiyalari*. // "Moliyaviy tahlil" jurnali. – 2023. – №2. – B. 56–61.
8. World Bank. *Uzbekistan Country Economic Update: Reform Momentum Continues*. – World Bank Report, 2023. – www.worldbank.org
9. Ziyodullaev M.M. *Investitsiya muhitini takomillashtirishning institutsional asoslari*. // Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi materiallari. – 2022. – www.cer.uz
10. Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hisobotlari – www.ifc.org

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)



⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 yanvar kuni joriy yilgi investisiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi: <https://invest.gov.uz/>